



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARIDA DO'STLIK MUNOSABATLARI MOTIVATSİYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ametova Muxaddas Saparbaevna

Nukus shahar 38-sonli maktab psixologı

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kichik maktab yosh davrida shaxs shakllanishiga doir nazariyalar, kichik maktab yoshidagi bolalarda do'stlik motivlarining shakllanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq, diqqat, Xotira, tasavvur va tafakkur do'stlik.

Kirish

O'zbekistonning kelajagi hozirgi kun yoshlari bo'lib, aqlan, ahloqan kamoloti muhimdir. Ayniqsa, ularni bilim cho'qqilarini, kasb malakalarini egallashlari, jamiyat foaliyatiga faol kirib borishlari, jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ertangi kun davomchilari bo'lgan yoshlar nafaqat bilim cho'qqilarini egallabgina qolmasdan balki ularda fidoiylik, Vatanga sadoqat, insoniylik tuyg'ularini shakllantirishlari lozim.

"Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariy tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetuk shaxs, barkamol avlod bo'lib yetishishiga bog'liq. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik – faqat zamonaviy asosda ta'lim-tarbiya olgan, jaxonning manaman degan mamalakatlaridagi tengdoshlari bilan har qanday sohada bellasha oladigan jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlari biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir," Birinchi prezidentimizning mana shu so'zlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarning barkamol avlod, komil inson qilib tarbiyalashda shaxs sifatida tog'ri shakllanishiga e'tiborni qaratish lozim.

Bu davr odatda bolalikning maktab davri deb ham yuritiladi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog'cha yoshida to'plagan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham ahloqiy, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg'aya boshlaydi. Jenevalik psixolog Jan Piajening ma'lumotiga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burulishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'lib boradi. Shuning uchun ham ular ota-onalari o'ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o'qituvchisi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib qoladi.

Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi tashqi real olamni, u qanday bor bo'lsa shunday anglay boshlaydi. Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

davom etadi, bu davrda bola maktab o‘quvchilariga qo‘yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokinining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligiga, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo’ladi. “Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat o‘qish hisoblanadi”. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsining shakllanishidagi o‘rnini nihoyatda katta. Bola o‘quv faoliyatida o‘qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an’analar asosida harakat qilishni o‘rganadi. O‘quv faoliyatida bola o‘z irodasini o‘quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O‘quv faoliyat boladan nutq, diqqat, Xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada ryvojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yanga sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o‘z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o‘tadi. U hayotining tubdan o‘zgarganini, unga yangi majburiyatlar. nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o‘quv salohiyati talablariga bo‘ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi.

Oila a’zolarining bola o‘quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqeい o‘zgarganligini to‘la his etishiga, o‘ziga nisbatan munosabatining o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash borasida yaxshi o‘qish, o‘ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug‘ullanishga o‘rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o‘rinni egallaydi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobjiy asos bo‘ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o‘rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o‘z vazifalari, majburiyatlar bor bo‘lgan, o‘z foaliyat natijasiga ko‘ra hurmatga sazovor bo‘lishi mumkin bo‘lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo‘ladilar. Buning natijasida bolaning o‘z-o‘zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini anglay boshlaganini ko‘rish mumkin. Bu davrda bolaning “Men shuni xohlayman” motividan “Men shuni bajarishim kerak” motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o‘quvchida psixik zo‘riqish kuchayadi, bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya’ni ma’lum darajada



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

qo‘rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo‘ladi. Bu davrga kelib bola atrofidagilar bilan o‘zaro munosabatda ma’lum bir natijalarga erishgan, o‘zi xohlayotgan narsalarni hamda, o‘z oilasida o‘zi egallagan o‘rinini aniq biladigan bo‘ladi. Shuningdek, u o‘zini-o‘zi boshqarish malakasiga ega bo‘ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatti-harakatlari va motivlari ularning o‘zlariga beradigan baholariga qarab “Men yaxshi bolaman” emas, balki bu xatti-harakatlar o‘zgalar ko‘z ungida qanday namoyon bo‘lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar. Bola maktab ta’limiga bog‘chada tarbiyalanyotganida tayyorlanadi. Buning uchun u dastavval, ta’lim-tarbiya tomonidan o‘quvchi shaxsiga qo‘yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi. Undan tashqari u fan asoslarini o‘rganish uchun ham biologik, jismoniy ham psixologik jixatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning obektiv va subektiv jixatdan munosibligi, bilish jarayonlari bilan shaxs xususiyatlarining o‘zaro munosibligi nazarda tutiladi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada taraqqiyot bosqichiga erishadi. Ushbu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, uning qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o‘quvchilardan ajralib turadi.

Xulosa

Bizga ma’lumki, bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga va kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topisihga uning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi kata ahamiyat kasb etadi. O‘ziga-o‘zi baho berish-shaxsnинг o‘zi tomonidan o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o‘rniga baho berilishidir. Shaxs o‘ziga - o‘zi baho berish orqali o‘zining xulq-atvorini to‘g‘irlab tartibga solib boradi. U shaxsning yadrosiga taaluqli bo‘lib, xulq-atvorni muhim boshqaruvchisidir. Odamning atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari, uning tanqiydiligi, o‘ziga talabchanligi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka munosabati uning o‘ziga- o‘zi beradigan bahosiga bog‘liqidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2019-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev-Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2020-y. Toshkent.
3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., Tolaganova SH. Psixodiagnostika. Oquv qollanma. -Toshkent, 2008-yil.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

4. Maslou A.G. Motivatsiya va shaxsiyat. - Evrosiyo - SPb., 2007.agi TDPU nashriyoti, 2002-yil.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.uz